

YUNON - BAQTIRYA DAVLATINING O'ZBEK DAVLATCHILIGIDA TUTGAN O'RNI

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi
mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com
Tel: +998883638090

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20389839>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi, unda hukmronlik qilgan hukmdorlar hamda ularning amalga oshirgan islohotlari, davlat hududi, qo'shni davlatlar bilan aloqalari, boshqaruv tizimi va qo'shini haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Salavkiylar davlati, Antiox III, Yevtidem I, Baqtriya, Sug'diyona, Diodot I, Demetriy I, Evkratid I, elenizm, straplik, satrap.

Qadimgi Sharq va G'arb sivilizatsiyalari tutashgan hududlardan biri bo'lgan O'rta Osiyo tarixida Yunon-Baqtriya davlati alohida o'rin tutadi. Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida Diodot I boshchiligida Baqtriya hududida tashkil topgan ushbu davlat ellinistik madaniyatning sharqqa tarqalishida muhim rol o'ynadi. Yunon-Baqtriya davlati nafaqat siyosiy jihatdan mustaqil davlat sifatida shakllandi, balki iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida ham muhim markazlardan biriga aylandi.

Mazkur davlat hududi hozirgi Afg'oniston, O'zbekiston janubi va Tojikistonning ayrim qismlarini o'z ichiga olgan bo'lib, u qadimgi Ipak yo'lining muhim chorrahasidan birida joylashgan edi. Shu sababli Yunon-Baqtriya davlati turli xalqlar, madaniyatlar va savdo yo'llarining kesishgan nuqtasiga aylangan. Ayniqsa, yunon va mahalliy sharqona an'analar uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos madaniyat shakllandi.

Salavkiylar davlati hududi katta bo'lgan. Qo'shni davlatlar bilan raqobat hamda O'rta Osiyoda ko'chmanchi xalqlarning doimiy bosqin xavfi kabi siyosiy vaziyatlardan unumli foydalangan sharqiy satrapliklar o'z mustaqilligini e'lon qila boshladilar. Jumladan, Baqtriya va Parfiya bir vaqtda, miloddan avvalgi 250-yilda, Salavkiylar davlatidan ajralib chiqdilar.

Yozma manbalarda mavjud kam sonli ma'lumotlarga ko'ra, Yunon-Baqtriya podsholigi hukmdorlari makedoniyalik emas, balki yunon edilar. Salavkiylardan birinchi bo'lib ajralib chiqqan Baqtriya va Parfiya yunon satraplari — Diodot va Andragor ellin bo'lgan.

Baqtiriyaning salavkiylar davlatidan ajralib chiqish jararayinini Pompiy Trogning ma'lumotida qo'zg'olon ko'tarish orqali o'zini Baqtiriyani podshohi deb e'lon qildi. Undan o'rnak olgan boshqa satrapliklar ham mustaqiliklarni bildirdilar.

Boshqa nuqtai nazarga ko'ra, Baqtiriyaning Salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi urushsiz, tinch kechgan. Ushbu fikrni ilgari surgan olimlar buni tangalarning bir tomonida Diodotning, ikkinchi tomonida esa Salavkiy podshoh Antiox II ning yozuvlari mavjudligi bilan asoslaydilar. Tadqiqotchilar yozma manbalardan olingan qisqa ma'lumotlar tahlili asosida Yunon-Baqtriya podsholigi miloddan avvalgi 256, 250, 248 va 245-yillarda yuzaga kelgan deb hisoblaydilar. Yangi tashkil etilgan davlat asosi Baqtriya edi, uning poytaxti Baqtra bo'lib, u hozirgi Shimoliy Afg'onistonning Balx shahri o'rnida joylashgan edi. G'arbda va shimoli-g'arbda Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga faqat Diodot va Yevtidem hukmronligi davridagina Areya va Marg'iyona kirgan edi.[1, b - 164]. Diodot o'zini mustaqil deb e'lon qilganiga qaramay, Salavkiylarga qisman bo'lsa-da tobe edi. Buni zarb etilgan tangalar orqali ko'rish mumkin. Diodot miloddan avvalgi 247-

246-yillardan keyingi tangalariga “Shoh Diodot” deb yozdirgan. Bu esa uning Antiox II Teos vafotidan keyin to‘la mustaqil bo‘lganini anglatadi.

Diodot va Parfiya hukmdori bo‘lgan Andragor o‘rtasida yaxshi munosabatlar mavjud bo‘lgan. Diodotning Arshakiylar bilan munosabatlarining yomonlashuviga Andragorning Arshak tomonidan miloddan avvalgi 238–236-yillar oralig‘ida o‘ldirilishi sabab bo‘lgan. Shundan so‘ng Diodot katta qo‘shin to‘plab, Arshakiylar ustiga yurish qiladi. Biroq bu yurish urushgacha yetib bormaydi. Diodot I dan so‘ng taxtga o‘tirgan uning o‘g‘li Diodot II va Arshak o‘rtasida miloddan avvalgi 230-yilda tinchlik sulhi tuzilib, harbiy ittifoq ham shakllantiriladi.[2, b - 82-83].

Arshak II bilan Diodot II harbiy ittifoq tuzdilar. Biroq Diodot II bu ittifoqdan o‘z mavqeini mustahkamlashda to‘liq foydalana olmadi. Sababi, viloyat hokimlaridan biri — Sug‘diyona hokimi bo‘lgan Yunon Yevtidem Diodot II ga qarshi kurash boshladi. Bu kurashda Yevtidem g‘olib chiqdi va hokimiyatni egalladi. U miloddan avvalgi III asr oxirlarida Yunon-Baqtriya davlatida o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Yevtidem Baqtriyada o‘z mavqeini mustahkamlashga harakat qildi, chunki u kutilmaganda sak-massaget kabi ko‘chmanchi qabilalar hujum qilishi mumkinligini yaxshi bilardi.

Miloddan avvalgi 208-yilda Salavkiylar podshosi Antiox III Yevtidem boshchiligidagi Yunon-Baqtriya davlatiga qarshi urush harakatlarini boshladi. Bu jangda Yevtidemning 10 ming kishilik qo‘shini tor-mor etildi, Yevtidemning o‘zi esa Baqtriyadagi harbiy qal‘aga chekinishga majbur bo‘ldi. Mazkur qal‘a kuchli istehkomga ega edi. Antiox III uni bir yil davomida qamalda tutdi, biroq Baqtriyani egallay olmadi. Natijada ikki tomon o‘rtasida miloddan avvalgi 207-yilda tinchlik muzokaralari boshlandi. Bitimga ko‘ra, Yevtidem Antiox III ni oliy hukmdor sifatida tan oldi, shu bilan birga o‘zi ham podsholik unvonini saqlab qoldi. Shuningdek, u Antiox III ga bir necha jangovar fillar berish hamda tashqi siyosatda u bilan bamaslahat ish yuritish majburiyatini oldi.

O‘z kuchiga ishongan Antiox III keyinchalik Hindistonga yurish boshladi. U salavkiylar davlatining sharqiy viloyatlarini yana o‘ziga bo‘ysundirishni maqsad qilgan edi. Biroq Markaziy Osiyo hududlari salavkiylar uchun amalda yo‘qotilgan edi. Miloddan avvalgi 206-yildan boshlab Yunon-Baqtriya davlati uchun salavkiylar xavfi deyarli yo‘qoldi. Chunki bu davrga kelib Antiox III g‘arbda Suriya uchun misrliklar bilan urush olib borayotgan edi.[5, b - 65].

Yevtidem I dan so‘ng uning o‘g‘li Demetriy I taxtga chiqdi. Demetriy I otasining bosqinchilik siyosatini davom ettirdi. Xususan, u Hindiston tomon qo‘shin tortib, Hind daryosi vodiysiga bostirib kirdi va miloddan avvalgi 180-yillarda Xaraxvati hamda Panjobni egalladi.

Demetriy I shimoliy-g‘arbiy Hindistonni zabt etib yurgan bir paytda, taxminan miloddan avvalgi 171-yilda Baqtriyada Evkratid I tomonidan davlat to‘ntarishi amalga oshirildi. Uning hukmronlik davri ham ichki va tashqi ziddiyatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Dastlab u Demetriy I ni asta-sekin hokimiyatdan chetlatdi, biroq bu bilan mamlakatda tinchlik ta‘minlanmadi. Yevtidem davrida g‘arbda egallangan hududlardan Marv va Hirot yerlari Arshakiylar davlati tomonidan tortib olindi. Shuningdek, Baqtriyaning shimoliy va g‘arbiy hududlarida yashovchi o‘troq hamda ko‘chmanchi qabilalar bilan doimiy ziddiyatlar Evkratid I ni ancha holdan toydirdi. Garchi uning shimoliy-g‘arbiy Hindistonga qilgan yurishlari davlatning harbiy-iqtisodiy qudratini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, Evkratid I aynan shu yurishdan qaytishda fojiali tarzda halok bo‘ldi. U o‘z o‘g‘li tomonidan o‘ldirilgan edi. Evkratid I ning o‘limi Yunonlarning Baqtriyadagi siyosiy inqirozini yanada tezlashtirdi. Otasini o‘ldirgan Geliokl I hukmronligi asosan Baqtriya bilan cheklanib qoldi, qolgan hududlarni esa Diodot va Yevtidem avlodlari boshqardilar. Tez orada Baqtriya ko‘chmanchi qabilalar hujumiga duchor bo‘ldi.[1, b - 171].

Yunon-Baqtriya davlat podsho tomonidan boshqarilgan bo'lib, tangashunoslik ma'lumotlari Diodot I,II,III, Yevtidem I,II, Demetriy, Geliokl, Platon kabi podsholari haqida xabar beradi. Salavkiylar kabi Yunon-Baqtriya podsholari ham davlatni satrapliklarga bo'lib idora etganlar. Yunon-Baqtriya davlati markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqargan. Davlat bir nechta viloyatlarga (satrapiyalarga) bo'lingan bo'lib, bu viloyatlarning boshqaruvchilari — satraplar podshoga bo'ysungan. Ammo bu davrda davlat nechta satrapiyadan iborat bo'lgani va ularning nomlari aniq ma'lum emas. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, satraplarni tayinlashda qarindoshlik an'analarga amal qilingan bo'lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya podsholari boshqargan hududlar Shimoliy Afg'oniston, Janubiy O'zbekiston hamda Hindukush tog'laridan janubdagi ayrim viloyatlarni o'z ichiga olgan. Bu hududlarda tashkil topgan markazlashgan davlatda Diodot I, undan keyin esa Yevtidem I (miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmi) davrida kuchli podsho hokimiyati mavjud edi. Miloddan avvalgi II asrning ikkinchi choragidan boshlab, Yunon-Baqtriya podsholigi inqirozga yuz tutguniga qadar davlatda avvalgi kabi mutlaq birlik va barqarorlik saqlanib qolmadi.[3, b - 82].

Yunon-Baqtriyaning qo'shini ham ancha mustahkam bo'lgan. Jumladan, Qadimgi mualliflar ma'lumotlariga ko'ra, janglar olib borgan ellin davlatlari qo'shinlarining soni 12 mingdan 110 minggacha bo'lgan. Ko'pchilik qo'shinlar esa odatda 20–30 ming askardan iborat bo'lgan. O'tliq qo'shinlar tarkibida 1 mingdan 12 minggacha o'tliq jamlangan bo'lib, ko'pincha janglarda 2–5 ming o'tliq qatnashgan. Piyoda va o'tliq askarlar nisbati odatda 5:1 yoki 7:1 ni tashkil etgan. Jangovar fillar qo'shin tarkibida ko'p bo'lmagan, ularning soni odatda o'nlab, kamdan-kam hollarda esa yuzlab bo'lgan.[4, b - 108].

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoning janubiy hududlaridan ellinizm madaniyati bilan bog'liq turar joylar, moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlari hamda tangalarning topilishi bu hududlarda mahalliy madaniyatga ellin an'analari (shaharsozlik, haykaltaroshlik, badiiy-amaliy san'at, alifbo va boshqalar) kuchli ta'sir ko'rsatganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ushbu topilmalar mahalliy madaniyatning rivojlanishi qadimgi (antik) davrda Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos yuksak darajaga ko'tarilganini ham ko'rsatadi.[6, b -136].

Xulosa qilib aytganda, Yunon-Baqtriya davlati miloddan avvalgi III–II asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan kuchli ellinistik davlat bo'lib, Diodot I va Yevtidem I davrida siyosiy va harbiy jihatdan yuksaldi. Biroq ichki ziddiyatlar, taxt uchun kurashlar hamda tashqi bosimlar (ko'chmanchi qabilalar va qo'shni davlatlar hujumlari) natijasida zaiflashib, oxir-oqibat inqirozga yuz tutdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Алимova, Д.А.; Ртвеладзе, Э.В. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 552 б.
2. Asqarov, A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2023. – 456 b.
3. Eshov, B. O'zbek davlatchiligi va boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2012. – 426 b.
4. Самаров, Р.С. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи). – Тошкент: Маънавият, 2023. – 458 б.
5. Shamsutdinov, R.; Karimov, Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.
6. Эшов, Б.Ж.; Одилов, А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. – Тошкент, 2014. – 489 б.